

**BOLALARNING IJODIY VA MANTIQIY TAFAKKURINI
SHAKLLANTIRISH YO'LLARI**

**ПУТИ ФОРМИРОВАНИЯ ТВОРЧЕСКОГО И ЛОГИЧЕСКОГО
МЫШЛЕНИЯ ДЕТЕЙ**

**WAYS OF FORMATION OF CREATIVE AND LOGICAL THINKING OF
CHILDREN**

G.Xamidova.JDPI katta o'qituvchi

F.Istamova Maktabgacha ta'lif

yo'nalishi talabasi

Anotatsiya: Tasavvur etish, tafakkurning rivojlanishidir. Maktabgacha yoshdagи bolalar mashg'ulotlaridagi asosiy vazifalardan biri – bola miyasida buyum va hodisalar haqidagi axborotni tasavvur ettirish

Аннотация: это развитие воображения, мышления. Одной из основных задач в занятиях дошкольников является представление информации о предметах и явлениях в мозгу ребенка

Annotation: this is the development of imagination, thinking. One of the main tasks in preschool classes is to present information about objects and phenomena in the child's brain.

Kalit so'zlar: Bolalarning mayda motorikasi, uning nutqi, mantiqiy tafakkurini, Bolalarning qo'l va bilak motorikasi, miya faoliyati, yaxshi taraqqiy, grafik diktant.

Ключевые слова: развитие мелкой моторики ребенка, его речи, логического мышления, моторики рук и запястий детей, мозговой деятельности, мелкой моторики, графического диктанта.

Keywords: development of fine motor skills of a child, his speech, logical thinking, motor skills of hands and wrists of children, brain activity, fine motor skills, graphic dictation.

Jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida inson qalbini kichiklikdan boshlab yaxshilik, oliyjanoblik, insonparvarlik, odamgarchilik, aql-idrokli bo‘lish, odob-axloqlilik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, halollik, poklik, so‘zamollik, xushso‘zlilik, ilmli bo‘lish kabi xislatlar bilan boyitish inson kamolotining me’yori bo‘lib kelgan. Chunki komil insonning ma’naviyati yuksak bo‘ladi Yuksak ma’naviyatga ega bo‘lgan kishi esa o‘z xalqining tarixi, urf-odati, qadriyati hamda an’analari, madaniyatini chuqur biladi va unga rioya qiladi

.O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni hamda “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq bu sohada yangi tizim yaratildi. Ushbu tizim oldiga maktabgacha ta’lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, maktabgacha ta’lim muassasalari davlat va nodavlat tarmog‘ini kengaytirish hamda moddiy- texnik bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta’minalash, maktabgacha ta’lim muassasalariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta’lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma’naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish, ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash vazifalari qo‘yildi.Maktabgacha davr bolaning o‘sish, rivojlanish, o‘zini namoyon etishga intilish, o‘rganish, bilishga ishtiyoqi kuchli bo‘lgan davridir. Aynan shu davrda bolaning insoniy sifatlari va aqliy salohiyati rivojlanishi uchun poydevor yaratiladi. Maktabgacha yoshdagi bola bilan ta’lim-tarbiya qanchalik erta boshlansa, samarasi shunchalik barvaqt namoyon bo‘ladi va bolaning butun hayotiga ijobiyligi ta’sir qiladi. Shunday ekan, bolalar tafakkurini rivojlantirish asosiy vazifalardan biriga aylanadi. Buning uchun uning yirik va mayda qo‘l motorikasini rivojlantirish

zarur. Chunki inson qo‘l va barmoqlarida nerv tolalari joylashgan. Barmoqlar orqali inson axborot oladi. Bolalarning mayda motorikasi uning nutqi, mantiqiy tafakkurini shakllantirishga ta’sir etadi. Bolalarning qo‘l va bilak motorikasi to‘g‘ri rivojlantirilsa, miya faoliyati shunchalik yaxshi taraqqiy etadi.Qo‘l barmoqchalari motorikasining rivojlanishi quyidagi holatlarni yuzaga keltiradi:

- tafakkurning rivojlanishi;
- harakat koordinatsiyasining rivojlanishi;
- xotira va diqqatning oshirish;
- yozish ko‘nikmalarining shakllanishi;
- nutqning ravonlashuvi.

Tasavvur etish, tafakkurning rivojlanishidir. Maktabgacha yoshdagi bolalar mashg‘ulotlaridagi asosiy vazifalardan biri – bola miyasida buyum va hodisalar haqidagi axborotni tasavvur ettirish. Masalan, rasm chizish, turli o‘yinlar, kubiklardan biron-bir narsa yasash orqali bola ana shu axborotni tafakkurida rivojlantiradi. Ushbu tafakkur turi boshqa tafakkur turlariga asos bo‘lib, so‘z boyligi, mantiqiy tafakkurning shakllanishi, kelajakdagagi maktab darslarini a’lo darajada o‘zlashtirishda ko‘maklashadi.

Bolalar o‘z tabiatlariga ko‘ra haddan tashqari qiziquvchan bo‘ladi. Ular hamma narsani bilishi juda zarur: ta’mini tatif ko‘rishi, ushlab ko‘rishi, tushunarsiz va yangi bo‘lgan narsalarga o‘z tushuntirishlarini o‘ylab topishi, tajriba o‘tkazib ko‘rishi va o‘z farazlarini tekshirishi.

Har bir ota-onan o‘z farzandiga uni o‘rab turgan olamni tanishiga yordam berishi zarur.Bola 3 yoshigacha asosan predmet va harakatlarning nomlarini o‘zlashtiradi. Nomlar asosan uning vazifasini anglatib, bu predmet yoki harakatning tashqi ko‘rinishi o‘zgarsa ham uning nomi o‘zgarmaydi. Shuning

uchun ham bola predmetlarning nomlari ishlatalishini vazifalariga bog‘lagan holda tez o‘zlashtiradi.

Maktabgacha tarbiya yoshida bolaning analizatorli idrok etish jarayoni ham yanada takomillasha boradi. Bola hayotining 3-yoshida beixtiyor idrok maktabgacha tarbiya yoshidagi katta bolada ma’lum bir maqsadga qaratilgan, tanlangan idrokka aylanadi, kuzatuvchanlik tarkib topadi.

Idrok etishda so‘zning roli osha boradi, endi bola narsalarning belgilab qo‘ygan sifatlari va xususiyatlarini aytib ko‘rsatadi. Idrok jarayoni bolaning tafakkurini o‘siradi hamda o‘z faoliyati davomida va tafakkur jarayonida tobora takomillashadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bola tasavvurlari doirasi kengayishi va bilimning oshishi uning aqliy faoliyatining xarakterini o‘zgartiradi. Nutqning o‘sish faoliyatining kengayishi yangi tafakkur shakllari uchun sharoit yaratadi. 5–6 yashar bola tasvirlaydi, keyin esa muhokama qiladi, umumlashtiradi. Shu yoshdagi bolaning tafakkuri aniq obrazli emotsiyal va yaqqol tafakkur hisoblanadi. Muhokama bevosita narsa, buyum bilan bog‘langan. Bola umumlashtirilgan tushunchalarini o‘zlashtiradi, fikr yuritish operatsiyalari faqat idrok etishgagina emas, balki xayolga ham asoslanadi.

Dastlabki (garchi mukammal bo‘lmasa ham) hukmlardan xulosa chiqarish va yakun yasash paydo bo‘ladi. Bu yoshdagi bolaning xotirasi yangi faoliyatlar va uning oldiga qo‘yilgan yangi talablar asosida takomillasha boradi. Bog‘cha yoshidagi bolalar o‘zlarining faoliyatları uchun qandaydir ahamiyatga ega bo‘lgan, ularda kuchli taassurotlar qoldirgan va ularni qiziqtirgan narsalarni beixtiyor esida saqlab qoladi. Ushbu yoshdagi bolalar tafakkuri va uning o‘sishi o‘ziga xos xususiyatga ega. Maktabgacha yoshda bolaning tafakkuri juda tez rivojlana boshlaydi. Buning sababi, birinchidan, ularda turmush tajribasining nisbatan ko‘payishi, ikkinchidan, nutqining yaxshi o‘sgan bo‘lishi, uchinchidan esa bog‘cha yoshidagi bolalarning juda ko‘p erkin, mustaqil harakatlar qilish imkoniyatiga ega bo‘lishlaridir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda har sohaga doir savollarning tug‘ilishi ular tafakkurining faollashayotganidan darak beradi. Bola o‘z savoliga

javob topa olmasa yoki kattalar uning savoliga ahamiyat bermasa, undagi qiziquvchanlik susaya boshlaydi.

Bolaga ta’limni erta, kech ham emas, balki o‘z vaqtida berish lozim. Bolaning yoshiga muvofiq ravishda shunday ta’lim berish kerakki, bunda uning barcha hissiyot a’zolari jalb etilgan bo‘lsin. Ya’ni bola rivojlanish jarayonida mustaqil ravishda o‘zi teginish, ko‘rish, eshitish, hidlash va mazasini bilish imkoniyatiga ega bo‘lishini ta’minlash zarur. Bolaga kichikligidan axloqni o‘rgatish miya rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Kattalarni hurmat qilish, salom berish, yo‘l harakati qoidalariga amal qilish va boshqa shu kabilarni o‘rganib borgan bola hayoti davomida qiynalmaydi va kam xato qiladi. Bilim olish bolaga yaxshi kayfiyat baxsh etishi kerak. Bolani qiyab, o‘qish yoki yozishga barvaqt o‘rgatib, o‘yindan xoli qilish uning stress olishiga olib keladi. Natijada bolada har xil kasalliklar yuzaga kelishi mumkin. Bola bilimni o‘z xohishi bilan o‘zlashtirishi kerak. Agar istamayotgan bo‘lsa, demak, ota-onasi uni qiziqtirish yo‘llarini topa olmayapti. Shuning uchun ota-onalar bolaning rivojlanishi uchun aynan uning kichikligidan sharoit yaratib, atrof-muhitni yanada qiziqarli qilib ko‘rsatishlari kerak. Bola chizish, o‘qish, yashash, o‘ynash, qurish, yozish va boshqa faoliyatlarning barchasi farzand uchun qiziqarli bo‘lishi ota-onaga bog‘liq. Bola kichikligidan qanchalik qiziquvchan, savollari ko‘p bo‘lsa, shunchalik rivojlanib o‘sadi. Bolaning rivojlanishida maktabgacha bo‘lgan davri juda muhim o‘rin tutadi. Bu davrda bolaning jismoniy, axloqiy, psixologik salomatligi shakllanadi va aqliy rivojlanish qobiliyatlari takomillashadi. Bolani kelajakda omadli, aqli hamda iste’dodli bo‘lishini istagan ota-onasi uning rivojlanishiga aynan shu davrdan boshlab ahamiyat bermog‘i lozim. Bolaning ijodiy va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda quyidagi yo‘llarni amalga oshirish mumkin: Kitob o‘qish. Bola bilan birga kitob rasmlarini tahlil qilib o‘qish, undagi ertakning mazmunini bolaga o‘yin tarzida qayta so‘zlatish, o‘yinchoqlariga kitob mazmunini aytirish juda foydali va qiziqarli mashg‘ulot sanaladi. Ertak eshitish jarayonida bola ertak qahramonlarini kimgadir o‘xshatishga harakat qiladi, u o‘zi ertak yoki hikoyalarni mustaqil to‘qiy olishi ham mumkin. Chizish (bo‘yoq, un, qum bilan). Bolalar

odatda chizishni juda yaxshi ko‘rishadi. Lekin uddalay olishmasa, xafa bo‘lib chizmay qo‘yishi ham mumkin. Bolaga qalamning o‘rniga qo‘llarida chizishni (faqat maxsus bo‘yoqlar bilan) taklif qilib ko‘ring. Bo‘yoqqa qo‘llarini botirib, istagan narsani chizayotgan bola juda zavqlanadi (hamma yoq bo‘yoq bo‘lib ketishini inobatga oling). Yoki chala chizish mashg‘ulotini qo‘llang. Bunda siz bolaga biron-bir narsani oxiriga yetkazmasdan chizib berasiz. Bola esa o‘zi uni tugatib qo‘yishi kerak. Masalan, siz aylana chizib, boladan uni tugatib qo‘yishini so‘rang. Shunda bola aylanadan nima chizish mumkinligi haqida fikr yuritadi. Bola rasm solar ekan, rasmni so‘zlar bilan to‘ldirib, faollik bilan harakat qiladi, u o‘z tasavvurlari asosida keyinchalik katta yoshdagi odamlarning so‘ziga binoan rasmlar yaratishi mumkin, unda ayrim narsalarning obrazlari vujudga keladi. Rasm solish bilan loy va plastilinlardan shakllar yasaydi. Natijada, bola analizatorlarini rivojlantirishda moslashgan va differensiyallashgan harakatning tarkib topishidan tashqari, uning narsa shakli, hajmi, bir o‘lchovda bo‘lishi va munosabatini idrok etish takomillasha boradi. Chizishni un va qumda ham amalga oshirish mumkin. Grafik diktant. Bunda tarbiyachi bolalarga geometrik shakllar, narsa-buyumlarni aytib turadi. Bolalar chizadi. Masalan, uchburchak, qush va boshqalar. 3–4 yashar bola narsalar o‘rtasidagi bog‘lanishni farqlab oladi va o‘z faoliyatini rejalshtiradi. Bu faoliyat asta-sekin ijodiy faoliyatga aylanadi. Bo‘yash. Ayrim bolalar yaxshi chiza olmaydi, ammo chizishni xohlaydi. Bunday bolalarga tayyor rasmlarni bo‘yash vazifasini topshirish mumkin. Ular rasmlarni bo‘yar ekan, ertak qahramonlari bilan tanishadi. Ularning kiyimlari, qiyofalari, atrof-muhiti haqidagi tasavvurlarga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, qo‘l harakati motorikasi, ijodiy tafakkuri ham rivojlanadi. Pazl. Pazl yasash bola xotirasini rivojlantiruvchi juda foydali mashg‘ulot. Bola yaxshi ko‘rgan rasmlardan unga pazl olib bering yoki o‘zingiz yasab bering. Bolalar dominosi. Ertaklar qahramoni aks ettirilgan dominolarni bolangiz bilan birga o‘ynab, ba’zida unga yutqazib tursangiz, bola juda zavq bilan o‘ynaydi. O‘yin davomida esa u aqlan rivojlanadi. Bolalar dominosini o‘zingiz ham yasasangiz bo‘ladi. O‘yin jarayonida 3 yashar bolada dastlabki umumlashtirish yuzaga keladiki, bu narsa bolaning oddiy

masalalarni yechishida yordam beradi. She'r yodlash. Bolaning xotirasini rivojlantirish maqsadida har kuni bitta kichik she'r yodlating. Ertasi kuni kechagisini eslatib, yangisini yodlatsangiz maqsadga muvofiq. Origami (yaponcha, "qog'ozni yig'ish"). Yaponlarning qalbini aks ettiruvchi, to'rtburchak qog'ozdan shakllar yasash san'atidir. Origami nafaqat Yaponiyada, balki butun dunyoda odamlarning sevimli hordiq chiqarish mashg'ulotlariga aylangan. Origami san'atini o'rgatish bolalarda tasavvur qilish, fikrlash qobiliyati va barmoqlar motorikasini rivojlantirishga yordam beradi. Kusudami (yaponcha, "dori", "shar"). Yaponlarning qog'ozdan yumaloq shakllar yasash san'ati. Bolalar teatri. Bu usul bolalar qo'l motorikasini rivojlantirishda qollaniladi. O'yin. Bola o'yin jarayonida amaliy ehtiyojlarga qaram bo'lmaydi. Bunda u o'zining bevosita ehtiyoj va qiziqishlaridan kelib chiqadi hamda jarayonda o'z taassurotlari, borliq haqidagi tushunchalari va unga bo'lgan o'z munosabatlarini aks ettiradi. O'yinlarni turli predmetlar orqali amalga oshirish mumkin. Masalan, qisqich va sanoq cho'plari bilan mashqlar; dastro'mol, ip kalavasi, qog'oz bilan mashq; "Sehrli xaltacha"; oyoq kiyimlarning ipini o'tkazish; mozaika, konstruktorlar; skrepkalar; tish kavlagichlar, gugurt donalari bilan o'ynash. Eng asosiysi, bolani o'yin tarzida rivojlantirish kerak. Dars qilgandek, uni majburlab rivojlantirish ijobiy natijaga olib kelmaydi. Maktabgacha yoshdag'i bola har tomonlama rivojlana olsa, keyinchalik yutuqlarga erishishi oson bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.– T.: "O'zbekiston". – 2017.
2. Mirziyoyevning SH.M. "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. T.: -2016y. 29-dekabr.
3. Jalilova S.X. va boshqalar. Shaxsning psixik taraqqiyoti diagnostikasi. – Toshkent. – 2009.

4. Rasulova M., Abdullayeva D., . Oxunjonova S. Bolalarning mактабга psixologik tayyorligi. – Toshkent. – 2003

